



## BEGALI QOSIMOV TALQINLARIDA FITRATNING “MUNOZARA” ASARI TAHLILI

Sa'dullayeva Dilnoza Nortozi qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy  
Universiteti tayanch doktranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593337>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEYWORDS

*mumtoz adabiyot,  
ma'rifatchilik adabiyoti, izohli  
lug'at, ocherk, qissa, jadid,  
tahlil, drama, pulitsistika, nasr*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Fitrat ijodiy me'rosing xoriyda va yurtimizda o'rganilishi, Begali Qosimov izlanishlarida Fitrat va uning "Munozara" asariga munosabat tahlilga tortildi. Fitrat asarlarining murakkab tarixiy davrda ko'targan yuki va bajargan vazifalari borasida so'z yuritildi.*

Begali Qosimov O'zbek mumtoz va yangi adabiyoti muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ijodining mohiyatini milliy uyg'onish, ma'rifatchilik adabiyoti muammolari, siymolari ijodi, taqdiri masalalari qiziqtirgan. Bu hol uning ilmiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. "Abdulla Avloniy" (1979-yil), "Ma'rifat darg'alari" (1990-yil), "Ismoilbek Gaspirali" (1992-yil), "Maslakdoshlar Behbudiy, Ajziy, Fitrat" (1994-yil), "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" (2002-yil) Begali Qosimov o'zbek adabiyotshunosligida salmoqli ishlarni amalga oshirgan zabardast olim. Ayniqsa jadid adiblarini o'rganish borasida olib borgan izlanishlari tahsinga loyiq. 1994-yilda nashr etilgan "Maslakdoshlar" kitobida Behbudiy, Ajziy va Fitrat haqida chuqur mulohazalar va ma'lumotlarni keltirgan.

"O'zbek tilining 2 jildlik izohli lug'atida bu so'z yo'q. "Navoiy lug'atida" "tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish" deb izohlangan. Garchi bu so'z tilimizning bugungi "Izohli lug'ati"ga kirmagan bo'lsada, uni eshitmagan kishi kam. Bu nom bir vaqtlar ziyolilar davrasida benihoya izzat va sharaf bilan tilga olingan. Uning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo'yidagi hamkasblarigina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar" Begali Qosimov bu tariflarni Fitrat haqida yozgan edi. Begali Qosimov o'zining "Maslakdoshlar" nomli kitobida Fitratning ham hayot yo'li ham ijodi haqida muhim ma'lumotlar va tahlillarni keltirib o'tgan. Ayniqsa ulug' Yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida, ya'ni bahs-suhbat tarzida yozilgan "Munozara" borasida.

1909-19013- yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari bosiladi. 1909-yilda "Munozara" (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilg'on munozarasi) asari bosiladi. Ushbu asar dramatik publitsistikaga moyil bo'lib zamon zayli sabab tarixiy taraqqiyotning ikki tomonida joylashgan, dunyo va din,

ma'rifat va jamiyat borasida ikki xil nigohga ega bo'lgan kishining bahsiga qurilgan. Bu jadidchilik yo'lidagi ilk nazariy asar.

Xorijda nashr etilgani va Buxorodagi eng "munozara"li masala- jadid va qadim kurashini aks ettirgani uchun bu asarning o'z yurtida tarqalishi juda qiyin kechgan. S.Ayniyning guvohlik berishicha, "Munozara"ning bir qismi yo'lda rus senzoralari qo'liga tushib yo'q qilingan bo'lishiga qaramay, u Buxoroga yashirin olib kelingan. Fitratning boshqa bir zamondoshi Fayzulla Xo'jayevning qaydiga ko'ra, rus oxrankasi nafaqat Fitrat asarini, balki uni o'qigan, keltirgan kishilarni ham qattiq ta'qib ostiga olgan. Ta'qiblarga qaramay Mahmudxo'ja Behbudiy tavsiyasi bilan Hoji Mu'in Shukrulloh o'g'li tomonidan tarjima qilingan. Asarning noshiri ham ilk tanqidchisi ham Behbudiy bo'lgan. U asar haqida "Usuli jadida maktablarining naflig'i va funun zamonida tahsilining buhoriylar uchun luzumi to'g'risida Farangi afandi ila Mudarrisi Buxoriy janoblari oralarida bo'lg'an bahs va suhbat "Munozara" isminda bir risola shaklida forsiy tilga nashr bo'libdir. Inshoolloh, bu risola Buhoriylarning uyg'onmoqig'a bois bo'lib, "Munozara" muharririni rahmat ila yod etarlar." Deya takidladi.

Bu asarni 60- yillardan so'ng G'arbiy Ovrupa va Amerika olimlari tomonidan talil, talqin etish boshlandi. E. Ollvort Amerikalik turkshunos olim "O'zbek adabiy siyosati"(1964), Elen Karrer d'Enkaus Fransuz olimasining "Islom va Rus imperiyasi " asarlarida "Munozara" tahlil etilgan. ijobiy baholangan. Olmoniyalik olim I.Baldaufning va Hisao Komatsuning asar tahliliga bag'ishlangan risolalari nashr qilindi. O'zbek nasridagi ilk zamonaviy qissa hisoblangan "Munozara" 60-yillarning oxirrog'idan tojik va o'zbek olimlari tarafidan tilga olina boshlandi. Dastlab, Xoliq Mirzazodaning "Demokrat jadid adabiyoti" maqolasida, so'ngra, o'zbek olimlari E.Karimov, B.Qosimov, A.Aliyev, B.Ergashev va G.Rahimova kabilarning tadqiqot maqolalarida tahlilga tortilgan.

Yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvir etilgani, muallif yeri, suvi, havosi betimsol, xalqi g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning o'g'ir turmushidan so'z ochgani, uning sabablarini tahlil etganligini ta'kidlaydi Begali Qosimov. Asardan chiqarilgan xulosa deya Mahkamalarda pora emas, qonun ustuvor turishi kerakli, aks holda mehnat qanchalik ko'p qilinmasin, uquv va salohiyat qanchalik kuchli bo'lmasin, kutilgan samarani bermasligini ta'kidlaydi olim. Kitobda iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'ovlari-ishlab chiqarishdahi o'rta asrchilik, qonunsizlik ekani aytiladi. Fitratning "Sayyohi hindi" asarining ahamiyatini bu yerda qayd etmasdan o'tolmaymiz, asar nafaqat Buxoroda balki uning tashqarisida ham qiziqib o'qildi.

Fitrat nasriy asarlari o'zbek prozasi rivojiga sezilarli ta'sir etgan. Ko'tarilgan masalalar Turkiston milliy uyg'onishini ta'minlagan omillardan biri bo'lgan. Xulosa o'rnida aytish joizki, Abdurauf Fitratning ijodiy faoliyati va hayoti tarixnik murakkab, qaltis paytlarida millat va vatanga xizmat qilishning na'munasidir. Bunday yozuvchining hayotini va ijodini o'rganish ham savobli bir ishdir. Begali Qosimov izlanishlarida esa bu kabi zalvorli ishlar talaygina.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Hamidulla Boltaboyev. Fitrat va Jadidchilik.//Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2007 B 138.
- 2.Behbudiy M. "Munozara"haqida.//Turkiston viloyatining gazetisi.-1991.-29 sentabr.-73 son.

3. Edward A.Allworth. Uzbek Literary Politics. The Hague:Mouton and Company, 1964;  
D'Encausse Helene Carrere. Reform et revolution ches les Musulmans de l'Empire russe:  
Bukhara 1867-1924.-Paris: Libraire Armand Colin, 1966.-pp. 286-288.
- 4.Komatsu H. Fitrat'in Munazara'si uzerine notlar.// dodu Dilleri.- 1981. Cild 2, Sayi 4.- S.157-  
168.
- 5.G.Rahimova, "Munozara" – uyg'onish darakchi". O'AS, 198952-son.
- 6 Hamidulla Boltaboyev. Fitrat va Jadidchilik.//Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi nashriyoti,2007 B 140.
7. Begali Qosimov.Maslakdoshlar:Behbudiy, Ajziy, Fitrat-T.: Sharq, 1994.- B 78.

